

SARIMOQ PIYOZ HOSILDORLIGIGA BIOSTIMULYATORLARNING TA'SIRI

Sherimov Dilshodbek Shavkat o'g'li

QQXAI "Mevachilik, sabzavotchilik va uzumchilik"

kafedrasi tayanch doktoranti

sherimovdilshodbek71@gmail.com

To'rayeva Gulzira Muzaffarovna

QQXAI "Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik"

ta'lim yo'nalishi talabasi

Gulziraturayeva9@gmail.com

ANNOTATSIYA. Qoraqolpog'istonda ko'p yillar davomida sabzavot ekinlaridan yuqori hosil olish faqat mineral o'g'itlardan foydalanilib kelingan. Albatta buning bir qancha salbiy oqibatlarini bo'lib sabzavot ekinlaridan olinadigan hosilning kamayishiga va sifatiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa insonlar orasida kasalliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Bunda yangi xavsiz bo'lgan o'g'itlarga talab yuqori biostimulyatorlar shular qatoridagi zamonaviy o'g'itlardir.

KALIT SO'ZLAR Biostimulyatorlar, o'g'it, hosil, sifat, mikroflora, BL-77, Bioenergy-M, Novosil.

АННОТАЦИЯ. На протяжении многих лет в Каракалпакстане для получения высоких урожаев овощных культур используются только минеральные удобрения. Конечно, это имеет ряд негативных последствий, влияющих на качество и количество овощных культур. Это приводит к возникновению заболеваний среди людей. При этом к биостимуляторам, пользующимся повышенным спросом среди новых органических удобрений, относятся современные удобрения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Биостимуляторы, удобрения, урожайность, качество, микрофлора, БЛ-77, Bioenergy-M, Novosil.

ANNOTATION. For many years in Karakalpakstan, only mineral fertilizers have been used to obtain high yields from vegetable crops. Of course, this has a number of negative consequences, affecting the quality and quantity of vegetable crops. This leads to the emergence of diseases among people. In this case, biostimulants, which are in high demand for new organic fertilizers, are among them modern fertilizers.

KEYWORDS. Biostimulants, fertilizer, yield, quality, microflora, BL-77, Bioenergy-M, Novosil.

KIRISH Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi sohasini zamonaviylashtirib borish respublika oldida turgan asosiy vazifalardan biri. Bunga asos O'zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2019-yil 23-oktyabrdagi “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-58-53- sonli farmonida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish asosida sahoda bozor munosabatlarini keng turda amalga oshirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi, sohaga resurs tejovchi texnologiyalarni tadbiq qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi yutuqlarini sohaga joriy qilish belgilab berilgan. Shularni inobatga olib sabzavot ekinlarini to‘rt mavsumda yetishtirish mumkin va aholini oziq ovqat bilan ta‘minlash mumkin.

So‘nggi yillarda ekologik hosil toza hosil olish uchun masalasiga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e‘tibor biologik o‘g‘itlarga, shuning ichida mikrobiologik o‘g‘itlarga qaratilmoqda. Biostimulyatorlar birinchi navbatda tuproq unumdrligini ko‘tarishga qaratilgan bo‘lib, tuproq mikroflorasini uning faolligini orttirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib biz tajriba ishlarimizda mineral o‘g‘itlarni keskin qisqartirib, biologik o‘g‘itlar Bioenergy-M, Novosil, BL-77 kabi biostimulyatorlarning ta‘siri bo‘yicha ilmiy ishlar olib bormoqdamiz.

Faol mikrobiologik va mikroelementlar bilan boyitilgan biostimulyatorlar sabzavot ekinlarini shu jumladan sarimsoq piyozni tashqi stresslardan va kasalliklardan himoya qiladi. Respublikamizda sabzavot ekinlaridan olinadigan mahsulotlar tarkibidainson organzmi uchun zarur bo‘lgan turli vitaminlar, organik kislotalar va mikroelementlar ko‘p bo‘lganligi uchun bu ekinlar bilan xalqimizni yil davomida ta‘minlashda sabzavot xo‘jalilarda samarali foydalanish va vegetatsiya davrida Biostimulyatorlardan foydalanish orqali sabzavot ekinlarining hosildorligini ko‘tarishga qaratilgan.



1-rasm. Sabzavot ekinlarini o‘g‘itlashda qo‘llanilayotgan biostimulyatorlar

Tadqiqotlarimizda sarimsoq piyoz navlarining o'sishi va rivojlanishiga biostimulyatorlarning turli xil miqdorlarining ta'sirini aniqlash bo'ldi. Bunda sarimsoq piyozning bargidan oziqlantirildi.

Xulosa qilib aytganda sabzavot ekinlari shu jumaan sarimsoq piyozga biostimulyatorlar belgilangan miqdorda beriladigan bo'lsa vegetatsiya davrida 2-5 mart suspenziya holatida berilsa mineral o'g'itlar bilan oziqlantirilganga nisbatan 2-5 marta yuqori bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Komilov M. Sarimsoq. // Ózbekiston qishloq xójaligi. Toshkent., 2010. - 42. b
2. Korchagin. Vrediteli i bolezni luka i chesnoka. //Zashita rasteniy ot vrediteley i bolezney na sadovodstvo ogorodnom uchastke. Agropromizdat. Moskva., 1987. - S. 226-234.